

## **ODAM SAVDOSI: GLOBAL MUAMMO VA MILLIY KURASH CHORALARI**

**Ruzmetova Polina Mansurbekovna**

Toshkent davlat yuridik universiteti  
Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti  
1-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda nafaqat ichki, balki xalqaro miqyosda ham keng tarqalgan jinoyatlar qatorida odam savdosi alohida o‘rin egallaydi. Odam savdosi — shaxslarni aldov, majburlash, zo‘ravonlik yoki ularning ojizligidan foydalanish orqali ekspluatatsiya qilish maqsadida sotish, sotib olish yoki boshqa usullar bilan nazorat qilish hisoblanadi. Ushbu jinoyatga qarshi kurash choralari xalqaro va milliy darajada keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda. Mazkur maqolada muallif odam savdosi bo‘yicha olimlar fikri, taklif etilgan yechimlar va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida batafsil bayon qildi. Shuningdek, inson savdosi global muammo sifatida jahon hamjamiyatida dolzarb masalalardan biri ekanligi yoritildi. Maqolada inson savdosining sabablar, shakllar va oqibatlari tahlil qilindi hamda xalqaro huquqiy hujjatlar va milliy qonunchilikda mavjud mexanizmlar ko‘rib chiqildi. Muallif xalqaro va milliy qonunchilik asosidagi yechimlarni qiyosiy tahlil qildi. Maqola yakunida tahlil qilingan masalaga oid tegishli xulosalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** odam savdosi, ekspluatatsiya, aldov, majburlash, zo‘ravonlik, organ, protokol, tajovuz, transplantatsiya, qulchilik, tilanchilik, deklaratsiya, sanksiya, rehabilitatsiya

### **Kirish**

Bugungi kunda nafaqat O‘zbekiston, balki deyarli barcha davlatlarda odam savdosi keng tarqalgan va unga qarshi samarali choralar ko‘rilmoqda. Bu jinoyat deyarli barcha hududlarda mavjud: ayrim davlatlarda u keng tarqalgan, ba’zi

joylarda esa endigina rivojlanmoqda. Shu sababli odam savdosiga bo'lgan e'tibor oshib, xalqaro miqyosda uzluksiz choralar amalga oshirilmoqda. Buning yaqqol misoli — Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan odam savdosiga qarshi samarali chora-tadbirlarni belgilovchi bir nechta hujjatlarning qabul qilinganidir.

Inson savdosi zamonaviy dunyoda inson huquqlariga eng jiddiy tahdidlardan biri hisoblanadi. Ushbu jinoyat iqtisodiy tengsizlik, migratsiya jarayonlari va transmilliy tashkilotlar faoliyati tufayli yanada murakkablashmoqda. Ba'zi ekspertlar fikriga ko'ra, odam savdosi ko'pincha ayollar va bolalarga nisbatan amalga oshiriladi. Inson huquqlari bo'yicha professor, Irlandiya Inson huquqlari markazi direktori Siobhan Mullally odam savdosi qurbonlari ko'pchiligini aynan ayollar va bolalar tashkil etishini ta'kidlaydi.<sup>1</sup>

### **Material va metodlar**

Maqolada odam savdosini tushunish va unga qarshi islohotlarni yoritishda umumiy ilmiy usullar — tahlil va sintez, mantiqiy, tizimli va tarixiy usullar — qo'llandi. Shuningdek, qiyosiy-huquqiy, rasmiy-huquqiy va xususiy-huquqiy usullar ham tadqiqot metodologiyasiga kiritildi.

### **Tadqiqot natijalari**

Odam savdosi — foyda olish maqsadida shaxslarni kuch ishlatish, firibgarlik yoki aldov yo'li bilan yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilishdir. Har qanday yoshdagi va turli ijtimoiy kelib chiqishga ega erkak, ayol va bolalar dunyoning istalgan mintaqasida bu jinoyat qurboni bo'lishi mumkin. Odam savdogarlari ko'pincha qurbonlarni aldash va majburlash uchun soxta ishga joylashtirish agentliklari, ta'lim yoki ish imkoniyatlari haqidagi yolg'on va'dalardan foydalanadi.

<sup>1</sup> <https://www.ohchr.org/en/special-procedures/sr-trafficking-in-persons>.  
SJIF: 5.051

Hozirgi kunda odam savdosining bir nechta turlari mavjud bo'lib, ularning har birining maqsadi turlicha. Eng keng tarqalgan shakli — jinsiy ekspluatatsiya natijasidagi odam savdosi. Bu holatda shaxsni zo'rlik, aldov yoki majburlash orqali uning irodasiga qarshi fohishalik qilish, pornografiya mahsulotlarini ishlab chiqarishga jalb qilish yoki boshqa tijoriy jinsiy xizmatlarga majburlash amalga oshiriladi. BMTning Palermo protokoli jinsiy ekspluatatsiyani odam savdosining asosiy shakllaridan biri sifatida tan oladi. BMTga qarashli Giyohvandlik moddalari va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmaning (UNODC) 2024-yilgi hisobotiga ko'ra, 156 davlat orasidagi statistik ma'lumotlar tahlilida odam savdosi qurbonlarining 72% I jinsiy ekspluatatsiya tufayli azob chekkan. Qo'shimcha ravishda, davlatlarning 38%ida asosiy qurbonlar orasida ayollar ustunlik qilgan.<sup>2</sup>

Odam savdosining boshqa keng tarqalgan ko'rinishi — majburiy mehnatdir. Bu holatda shaxslarni kuch ishlatish, firibgarlik yoki majburlash yo'li bilan o'z xohishlariga zid ravishda ishlashga majburlash kuzatiladi. Jabrlanuvchilar qishloq xo'jaligi, zavodlar, mehmondo'stlik va boshqa sohalarda ishlashga majburlanadi. UNODC ma'lumotlariga ko'ra, odam savdosining taxminan 17% I majburiy mehnatga to'g'ri keladi. Ushbu turdagi jinoyat qurbonlari orasida yosh bolalar yuqori ulushni tashkil qiladi — taqriban 48%.

Odam savdosining yana bir xavfli manbai — sog'liqni saqlash sohasidagi ekspluatatsiya: organ transplantatsiyasi uchun shaxslarni majburlash yoki aldash orqali ularning tana a'zolarini noqonuniy olib tashlash va qora bozorda sotish. Bunday holatlarda qurbonlar a'zolari olib tashlangach o'ldirilishi yoki tashlab ketilishi mumkin. Ma'lumotlarga ko'ra, odam savdosining ushbu turi umumiy holatlarning taxminan 0,2% ini tashkil qiladi.

<sup>2</sup> Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Giyohvandlik moddalari va jinoyatchilik boshqarmasi. Odam savdosi bo'yicha global hisobot 2024.

Shuningdek, odam savdosidan quyidagi maqsadlarda ham foydalaniladi: qulchilik, tilanchilikka yollash, majburiy nikoh va boshqalar. UNODCning 2024-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, odam savdosi qurbonlarining 31% I Afrika davlatlariga to'g'ri keladi; qurbonlarning 38% I bolalar, 62% I esa o'smirlar hisoblanadi. Ushbu guruhlarining 61% I ayollar, 39% I erkaklardir. Ko'rinib turibdiki, odam savdosi qurbonlari orasida ayollar ulushi katta.

Bugungi kunda mazkur muammolarni kamaytirish maqsadida xalqaro hamkorlik va O'zbekiston miqyosida bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Odam savdosiga qarshi kurashishda faoliyat yuritayotgan eng muhim xalqaro tashkilotlardan biri — BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC) bo'lib, u 1997-yilda tashkil etilgan va BMTga a'zo barcha davlatlar bilan hamkorlik qiladi. Ushbu boshqarmaning asosiy maqsadi noqonuniy giyohvand moddalarga, jinoyatchilikka, korrupsiyaga va terrorizmga qarshi kurashish orqali global tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash hamda inson huquqlari va taraqqiyotga hissa qo'shishdir.

Nafaqat xalqaro tashkilotlar, balki bir qator xalqaro huquqiy hujjatlar ham odam savdosiga qarshi kurashga qaratilgan. Jumladan, BMTning Palermo Protokoli, Xalqaro Mehnat Tashkilotining "Bola mehnatining eng yomon shakllari to'g'risida"gi Konventsiyasi va Yevropa Kengashining "Inson savdosiga qarshi kurash bo'yicha" Konventsiyasi muhim hujjatlardir.

Palermo Protokoliga muvofiq, uni qabul qilgan har bir davlat odam savdosini jinoyat deb tan olishi va milliy huquq tizimida tegishli choralarni belgilashi shart. Bu protokol jabrlanuvchilarni himoya qilish va ularni qo'llab-quvvatlash choralarini ham nazarda tutadi.<sup>3</sup>

<sup>3</sup> Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Palermo Protocol. 2000. Preamble.  
SJIF: 5.051

Inson huquqlari bo'yicha qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 4-moddasida qullik va qul savdosining barcha ko'rinishlari taqiqlanishi belgilanganligi odam savdosining noqonuniyligi va inson huquqlariga zid ekanligini tasdiqlaydi.<sup>4</sup>

Odam savdosi shaxs ozodligiga qarshi jinoyat hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasiga muvofiq belgilangan har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqini buzadi.<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasida odam savdosiga qarshi kurash choralari xalqaro standartlarga muvofiq keng miqyosda olib borilmoqda. Masalan, 2019-yilda tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish milliy komissiyasining xabarlariga ko'ra, so'nggi uch yil ichida mamlakatda mazkur yo'nalishda 13 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan.<sup>6</sup> Bugungi kunda O'zbekiston hududida odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi milliy komissiya faoliyat yuritadi; uning hududiy bo'linmalari bilan birgalikda mamlakat bo'ylab kurash choralari amalga oshirilmoqda.<sup>7</sup>

O'zbekiston Respublikasi xalqaro standartlarga muvofiq odam savdosi bilan shug'ullanganlarga qarshi o'zining qonunchiligida sanksiyalar belgilagan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 135-moddasiga muvofiq, odam savdosi sodir etgan shaxslarga ularning ishtirokchilik darajasi, ijtimoiylik holatidan kelib chiqib uch yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish kabi og'ir jazo choralari belgilangan.<sup>8</sup> Shuningdek, odam savdosidan jabrlanganlarga davlat tomonidan moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish, ularning jamiyatga qayta

<sup>4</sup> Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 1948. 4-modda.

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023. 27-modda.

<sup>6</sup> <https://old.gov.uz/uz/news/view/25292>.

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasining "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun. 2020.

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. 1995. 135-modda.

moslashuvi uchun zarur imkoniyatlarni ta'minlanishi lozim. O'zbekistonda jabrlanganlar va jabrlangan deb gumon qilingan shaxslarni qayta yo'naltirish tizimi mavjud bo'lib, bu tizim barcha jabrlanganlarga ijtimoiy yordam ko'rsatadi.<sup>9</sup>

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Butun dunyo bo'ylab odam savdosi deyarli barcha davlatlarda uchrab, qurbonlarning ko'pchiligini ayollar va yoshlar tashkil qilayotganligi xalqaro tashkilotlar diqqat markazida aynan ushbu guruhlar turganligini ko'rsatadi. O'zbekiston hududida ham odam savdosi holatlari ortib bormoqda: masalan, 2022-yilda aniqlangan qurbonlar soni 93 nafar bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda u 193 nafarga yetgan.<sup>10</sup> Bu ko'rsatkichlarning oshishi mamlakatda ham muammoga qarshi yanada samarali chora-tadbirlar zarurligini ko'rsatadi.

Palermo Protokolida belgilangan norma va mexanizmlarning aksariyati O'zbekiston qonunchiligida aks ettirilganligi mamlakatning odam savdosiga qarshi kurash siyosati xalqaro standartlarga mos kelayotganidan dalolat beradi. Protokolda nafaqat jinoyatni oldini olish va jazolashga oid normalar, balki jabrlanuvchilarni himoya qilish va ularga yordam ko'rsatish choralari ham ko'zda tutilgan.<sup>11</sup> O'zbekistonda ham jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan maxsus tizimlar tashkil etilgan.

Odam savdosiga qarshi kurashda asosiy ustunlar quyidagilardan iborat: xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, xalqaro va milliy qonunchilikni uyg'unlashtirish hamda jabrlanuvchilarni rehabilitatsiya qilish bo'yicha samarali tizimlarni joriy

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil, 60-sonli qarori. "Odam savdosidan jabrlanganlar yoki odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan shaxslarni milliy darajadagi qayta yo'naltirish tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.

<sup>10</sup> <https://share.google/sMV3irlt500fKTgZC>

<sup>11</sup> Birlashgan Millatlar Tashkilotining Palermo Protokoli. 2000. 5 modda 1 band.

etish. Ushbu mezonlar xalqaro standartlarga muvofiq keladi va jinoyatni oldini olishda keng qo'llaniladi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, odam savdosi keng tarqalgan jinoyatlar qatoriga kirib, milliy va xalqaro darajadagi keng qamrovli kurashni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasi tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlar va qabul qilingan norma va mexanizmlar xalqaro huquqiy majburiyatlarga yuqori darajada muvofiqligini namoyon etadi. Milliy tizim jinoyatni ta'riflash va jazolashda ham, jabrlanuvchilarni himoya qilish va rehabilitatsiya qilishda ham xalqaro me'yorlarga mos mexanizmlarni joriy etgan.

Biroq samarali kurash uchun doimiy e'tibor quyidagi uch ustunga qaratilishi kerak: oldini olish, jinoyatchilarni munosib jazolash va jabrlanuvchilarning huquqlarini amalda to'liq ta'minlash. Kelgusidagi sa'y-harakatlar ayniqsa jabrlanuvchilarning huquqiy va ijtimoiy tiklanishini, jumladan yetkazilgan zarar uchun tovon olish imkoniyatlarini soddalashtirishga qaratilishi lozim.

Inson savdosi zamonaviy qullik shakli bo'lib, unga qarshi kurashning muvaffaqiyati nafaqat qonunlarning mavjudligiga, balki bu chora-tadbirlarning har bir fuqaroning xavfsizligi va qadr-qimmatini himoya qilish maqsadida izchil va samarali amalga oshirilishiga bog'liqdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston". Toshkent. 2023-yil. 27-modda.

2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”. 1948-yil. 4-modda.
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Palermo Protokoli. 2000-yil. Preambula; 5-modda, 1-band.
4. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Giyohvandlik moddalari va jinoyatchilik boshqarmasi. Odam savdosi bo‘yicha global hisobot. 2024-yil.
5. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. Toshkent. 1995-yil. 135-modda.
6. O‘zbekiston Respublikasi “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun. 2020-yil. 7-modda.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “Odam savdosidan jabrlangan yoki odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan shaxslarni milliy darajadagi qayta yo‘naltirish tizimini tasdiqlash to‘g‘risida”. Qaror. 60-son. 2021-yil.
8. <https://www.ohchr.org/en/special-procedures/sr-trafficking-in-persons>
9. <https://old.gov.uz/oz/news/view/25292>.
10. <https://share.google/sMV3ir1t500fKTgZC>.